



«SINF DAN TASHQARI DARSLARDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH»

Xolikmatova Zilola Askaraliyevna

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar 14-
maktab informatika va axborot
texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Yangi O'zbekistondagi ta'lim tizimini rivojlantirishda o'quvchilarni tez rivojlanayotgan davrimiz yangiliklari bilan hamohang tarzda yangicha usullardan foydalanish zamonaviy pedagog uchun muhim ahamiyat kasb qiladi. Darslarda o'quvchilarni zeriktirmaslik uchun turli o'zlarining tillarida va o'zlarining qiziqishlari asosida yangicha metodlar zarur.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim tizim, zarif o'yini ta'limga mosligi, bu o'yinning ijobiy tomonlari, tadbiiq qilish usullari.*

Har bir o'quvchining ta'lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib biri - birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqeda ko'rish albatta noo'rin. O'quvchilarning mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o'qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim. Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga



asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to'la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir.

O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so'z boyligi yetarli emas. Ma'lumki bola ilk bor tarbiyani oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhit uning ichki tartib intizomi ongli ravishda bola tarbiyasigatasir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida belgilanishicha –“Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlaricha boqish va tarbiyalashga majburlar”. Ushbu qoidaga muvofiq ota-onalarning o'z farzandlari oldidagi majburiyatlari huquqiy kafolatlangan va farzandini voyaga yetkazish, tarbiyalash ota-onaning burchi ekanligi uqtirilgan. Farzand dunyoga kelganidan so'ng, uni voyaga yetkazish, moddiy taminlash, o'qitish tarbiya berish ota-ona zimmasidagi yuksak mas'uliyatdir. Ana shunday mas'uliyatli ishlarga befarqlik, bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kechirib bo'lmaydigan hollarga olib kelishi hammaga ayon. Bolaga g'amxo'rlik, uning oiladagi huquqini taminlash masalalari muqaddas Qur'oni Karim, hadis kitoblarida, o'tmish allomalarimizning pand-nasihatlarida ham teran aks etgan.

Muqaddas Qur'on kitobida keltirilishicha, bola Olloh tomonidan ota-onaga omonat topshirilgan. Olloh ana shu omonatni voyaga yetkazish, ilmi, oqil, halol inson qilib tarbiyalashni esa ota-ona zimmasiga yuklagan. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada



tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Bolalar ulg'aya boshlashi bilan o'z ota-onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimiga qiziqqa boshlaydilar.

Oiladagi hamkorlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi xozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish,



mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas. balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigano'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn»,



«BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan

bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

asdan, o'ziga ishongan vatanparvar insonlar qilib tayyorlashga harakat qilamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni 23.09.2020 yil O'RQ-637-son.
2. Fayzullayeva N.S. Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. T. 2020.
3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
4. Qosimov M.S., Investitsiya loyihalar tahlili. Darslik.- T., TDIU, 2019.-168 bet
5. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma.—T.:2019.-170-b.
6. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
7. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.